

## G'ALLAOROL TUMAN AHOLISINING HUDUDIIY JOYLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR


*Xoldorova Gulbahor Mixliboyevna,  
Bahromova Malika Xolmumin qizi*

Jizzax viloyati iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror o'sishida mintaqaning geografik o'rni, mehnat resurslari, iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish quvvatlari va mavjud tabiiy boyliklari alohida ahamiyatga ega. Jizzax vohasi o'z tabiatining rang-barangligi bilan har qanday odamni o'ziga maftun etadi. Eng muhimi, uning o'ziga xos qiyofasini, mavqei-e'tiborini mana shu saxovatli zaminda yashaydigan zahmatkash insonlar, ularning aql-zakovati, fidoyiligi, elyurt ishiga sadoqati belgilaydi.

Hech kimga sir emas, mintaqadagi mavjud qulay tabiiy sharoit, yetarli xomashyo, malakali ish kuchi, transport va infratuzilma ob'ektlari holati, zamonaviy texnologiya va qulay investitsion muhit, hududning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. SHu nuqtainazardan qaraganda, ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan G'allaorol o'z tabiatining rang-barangligi bilan har qanday odamni o'ziga maftun etadi. Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida xalqimizning madaniy – maishiy turmush tarzi, dunyoqarashi, mulkka va mehnatga bo'lgan munosabatlari tubdan o'zgardi. E'tiborli tomoni shundaki, mustaqil fikrlaydigan o'sib kelayotgan avlod o'zligini, o'z qadrini anglab yetmoqda. Tumandagi har bir fuqaro, u kim bo'lmasin, kasbi - koridan, mavqeidan qat'iy nazar, el yurtiga qilgan fidoyiligi evaziga qadrlanishga, e'zozlanishga haqlidir. Aholi doimo mintaqa taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Chunki u hamisha moddiy boyliklarni ishlab chiqaradi va undan foydalanadi. G'allaorol tumani aholi soni bo'yicha viloyatda yetakchi o'rinni egallaydi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra tuman aholisining umumiy soni 186,9 ming kishini tashkil etadi (2023 y.). Bundan ko'rinadiki, tuman hududida Jizzax viloyati aholisining salkam 13,0 foizi yashaydi. Bu ko'rsatgich bo'yicha, viloyatda SH.Rashidov tumanidan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Mutaxassislarning tahlillariga ko'ra, tuman aholisi asosan tabiiy o'sish hisobidan ko'paymoqda. Ta'kidlash joizki, aholining tabiiy o'sishi doimo bir xil bo'lmaydi. So'nggi yillarda tumanda aholining tabiiy o'sishi ancha yuqori va bu ko'rsatgich 2023 yili har ming kishiga nisbatan 18,6 kishini tashkil qildi.

1-rasm. Jizzax viloyati aholisi tarkibida hududlar ulushi



(2024-yil 1-yanvar xolatiga)

*Jizzax viloyati statistika ma'lumotlari asosida*

Tabiiy ko'payishi aholining turmush darajasini farovonlashib borishidan va samarali ijtimoiy muhofaza mavjudligidan dalolat beradi. G'allaorol tumani hududining asosiy qismi tog' va tog'oldi zonalarda joylashgan, bu holat aholining hududiy joylashuviga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Odamlar o'ziga qulay bo'lgan tog'oldi hududlarda hamda daryo, soy, kanal bo'ylarida zich yashaydi. Bunga albatta, qadimdan mahalliy aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi va sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanganligi sabab bo'lgan.

Mutaxassislarining yozishicha, tuman hududidagi dastlabki aholi manzilgohlari aynan suv manbalariga yaqin joyda paydo bo'lgan. Aholi joylashuvining yana bir muhim xususiyati bu uning zichligi hisoblanadi. Zichlik ko'rsatgichi tumandagi mavjud tabiiy sharoit va aholi yashashi uchun kerakli bo'lgan omillarning turli-tumanligidan kelib chiqqan holda yuzaga keladi. Tuman hududida aholi notekis taqsimlangan, uning o'rtacha zichligi bir kilometr kvadratga 83,0 kishini tashkil qiladi.

Tumanda avvallari mavjud bo'lgan sanoat tarmoqlarini qayta tiklash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda mazkur shaharchalar asosiy baza vazifasini o'tashi mumkin. Yuqorida qayd qilingandek, 2009-yili tumanda to'rtta shaharcha paydo bo'ldi. Natijada, shahar aholisining salmog'i ancha oshdi va mavjud aholining 64,5 % yoki 104088 nafari qishloq joylarda, 35,5 % yoki 57538 nafari shaharlarda yashaydi. Qishloq joylarda aholi qadimdan o'troq

yashagan, va asosan dehqonchilik hamda chorvachilik bilan shug'ullangan. Bu raqam shahar va shaharchalar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi.

1-jadval

No	Shahar va shaharcha nomi	Aholi soni
1	G'allaorol	29249
2	Lalmikor	8717
3	Qo'ytosh	7163
4	Marjonbuloq	6065
5	Qang'li	3881
6	Abdukarim	2537
7	Chuvilloq	3025

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, faqat tuman markazi bo'lgan G'allaorol shahrida salkam 30,0 ming aholi istiqomat qiladi va viloyatdagi katta shaharlardan biri hisoblanadi. Tuman aholisining hududiy joylashuvida qishloqlarning rivojlanishi alohida o'ringa ega. Chunki aholi punktlarining hududiy kengayishi va aholi sonining ortib borishi urbanizatsiya jarayonini belgilovchi omil hisoblanadi. Tumanda aholi punktlarining hududiy joylashuvi va rivojlanishida tabiiy resurslarning mavjudligi, xo'jalik yuritish tizimi va ulardan foydalanish darajasiga ham ko'p jihatdan bog'liq. 2009 yildan so'ng tumanda shahar va qishloq aholisi nisbatida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Chunki, «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturining bajarilishini ta'minlash doirasida viloyatda 34 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berildi. Ular qatorida tumanda to'rtta aholi punktiga shaharcha maqomi berildi: Abdukarim, Chuvilloq, Lalmikor, Qang'li. Yangi shaharchalar orasida Lalmikor (8,7 ming kishi), shaharchasi aholi soni bo'yicha alohida ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga asosan G'allaorol tumandagi to'rtta aholi punktiga shaharcha maqomi berilishi tumanda shahar aholisining sonini ko'payishi va urbanizatsiya darajasini ortishiga sabab bo'ldi. SHunday bo'lsada, ushbu aholi punktlarining shaharcha maqomida rivojlanishi, yaqin kelajakda, ularda turli sanoat tarmoqlarini paydo bo'lishiga turtki bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, tuman aholisining hududiy taksimlanishida keyingi o'n yillikda anchagina ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Kelajakda tuman yuqori malakaga ega bo'lgan mehnat resurslari bilan to'la ta'minlanadi va ularni ish joyi bilan ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Bundan tashqari ushbu hududda rekreatsiya va turizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Qo'ytosh va Marjonbuloq

shaharchalarining geografik o'rnini biroz noqulay, ular asosan xom-ashyo qazib chiqaradigan hududda joylashgan. Qo'ytoshda kamyob metall volfram va molibden o'tgan asrning o'ttizinchi yillardan buyon shaxta usulida qazib olinadi. So'nggi yillarda ishlab chiqarish kamaygan bo'lsa ham, ammo to'xtab qolgan emas. Yaqin kelajakda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish nazarda tutilgan. Ushbu shaharchalarda aholi sonining tez ko'payishiga to'sqinlik qiladigan bir qancha omillar mavjud

- ❖ transport yo'llaridan uzoqligi;
- ❖ tabiiy suv manbai yetarli emasligi;
- ❖ ishlab chiqarish korxonalarining atrof-muhitga ta'siri.

Ma'lumki, qishloq aholisining hududiy joylashuvida hududning inson yashashi uchun qanchalik qulay yoki noqulayligi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, tumanning tog' va tog'oldi zonalarida yashash uchun qulay sharoit mavjud, shu bois aholining aksariyati shu hududlarda yashaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda tumanda 87249 kishi qishloq joylarda yashaydi. Barcha qishloqlar hudud bo'ylab notekis taqsimlangan va ularning joylashuviga tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri seziladi.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Л.Алибеков, Инсон ва табиат. "Фан ва технология" Тошкент. 2016
2. Gapparov, A., & Kholdorova, G.(2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. Архив Научных Публикаций JSPI.
3. Abdunazarov, U., & Sabitova, N., Kholdorova, G . Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytashkent region of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
4. Холдорова, Г. М. (2021). Роль картографических методов в классификации орошаемых геосистем мирзачуля. Экономика и социум, (1-2), 640-647.
5. Kholdorova, G. M. (2020). Changes In Natural Geographical Processes In The Mirzachul Region Under The Influence of The Sardoba Reservoir. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(3), 3136-3147
6. Хакимов, К. М., Холдорова, Г. М., & Эрматова, Н. Н. К. (2017). Принципы и основные положения номинации географических объектов. Проблемы современной науки и образования, (4 (86)).
7. Холдорова Г. Мирзачул табиий ўлкаси ландшафтларининг ўзгаришида шамолнинг аҳамияти, Экология хабарномаси 2021 №2(233)
8. Kholdorova, G. (2021). ПРОБЛЕМЫ МОНИТОРИНГА ОКРИЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ МИРЗАЧУЛЯ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1455>

9. Холдорова Г., Эсонов С.Э. М Сангзор хавзаси геосистемаларида тупрокларининг мелиоратив холатини картага туширишда тизимли тахлилдан фойдаланиш “Journal of Natural Sciences” №2 2021 у. <http://natscience.jspi.uz>
10. O.Ruzikulova, N. Sabitova G. Kholdorova The role of GIS texnology in determining irrigateci geosistems E3S Web of Conferences 227,03004(2021) GI 2021 ttps://do.org/10.1051/e3sconf/202122703004. 257
11. Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi. Jizzax, 2012
12. Xoldorova G. G'allaorol tumani geografiyasi. .:’’Mumtoz so’z’’T.:2019
13. Hakimov Q.M. Toponimika. Darslik. T.:’’Mumtoz so’z’’, 2016